

**TABIIY FANLARNI O'QITISHDA KOMPETENTLIKKA  
YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH**

*Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna,  
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)  
Kukonboyev Baxodir Muqimovich,  
Raxmonova Iqbolxon Mo'minovna  
Farg'ona viloyati, Furqat tumani kasb-hunar maktabi fizika o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** Maqolada umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda kompetentlikka yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi, kompetent topshiriqlar, "Tabiiy fanlar".

**Аннотация:** В статье говорится об использовании компетентностно-ориентированных задач при преподавании естественных наук в общеобразовательной школе.

**Ключевые слова:** государственный образовательный стандарт, учебная программа, компетентностные задания, «Sciences».

**Abstract:** The article mentions the use of competence-oriented tasks in the teaching of natural sciences in secondary schools.

**Key words:** state educational standard, curriculum, competent tasks, "Sciences".

Bugungi davr talabi dunyo ta'limi oldiga katta vazifani qo'yimoqda ya'ni o'quvchilarni kelajakda jamiyatda yashashga tayyorlashi kerak. Bunda birinchi navbatda tez o'zgarayotgan axborot bilan ishlaydigan kasblar bilan bog'liq xususiyatlarni bolada shakllantirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi № PP-3931 son qarorida: Umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish va shu bilan birga STEAM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) metodlarini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilab berilgan.

Ushbu DTS va o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etish uchun zarur tizimli ishlar va hal etilishi lozim bo'lgan bir qator masalalar ham mavjud. Jumladan, o'quvchilarda 2021 yildan joriy etila boshlangan "Tabiiy fanlar" ni o'qitishni qanday usullarini qo'llash lozim? Qanday qilib, hozirgi kundagi maktabdagi "a'lochi" o'quvchini "kompetentli" o'quvchiga aylantirish mumkin? - degan savol ilmiy va uslubiy jihatdan asoslangan javoblarni talab etadi, albatta.




Agar kompetensiya – bu to‘plangan bilimlarni amaliy faoliyat va kundalik hayotda qo‘llash qobiliyati bo‘lsa, unda kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlar ushbu maqsadga erishish uchun qo‘llaniladigan vosita hisoblanadi.

Quyida “Tabiiy fanlar”ni o‘qitishda foydalanish uchun bir nechta kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlardan keltirib o‘tamiz.

### **Uchta chelak**

**Muammo.** Uchta bir xil chelak olinib har biriga bir xil yog‘och taxtacha tashlandi. Har bir taxtachaga bir xil tarozi toshi ip bilan bog‘lanib chelaklarni suvga to‘ldirildi. Birinchi chelakda taxtacha tosh bilan birgalikda suvda suzib yurdi. Ikkinchisida taxtachadagi ip bo‘shalib tosh chelak tubiga tegdi. Uchinchisida ip butunlay bo‘shalib, tosh chelak tubida yotib qoldi.

Agar bu chelaklarni navbatma-navbat tortib ko‘rilsa ulardan qaysi biri og‘irroq bo‘ladi?



**Yechimi.** Uchinchi chelakdagi yog‘och taxtacha? Birinchi va ikkinchi chelakdagiga nisbatan kamroq cho‘kadi. Demak, u kamroq suvni siqib chiqargan. Chelaklarda suv to‘la bo‘lgan. Shunga ko‘ra, uchinchi chelakda qolgan suv, boshqalariga qaraganda ko‘proq. Har uchchala chelakdagi taxtachalar va toshlarning og‘irligi bir xil bo‘lganligidan, uchinchi chelak boshqalariga qaraganda og‘irroq bo‘ladi.

### **Shayinli tarozi**

**Muammo.** Shayinli tarozining bir pallasida tarozi toshi, ikkinchi pallasida suvli idish muvozanatga keltirilgan. Agar suvli idishga barmoq tiqilsa muvozanat o‘zgaradimi? Barmoq idishga tegmaydi.

**Yechim.** Suvli idish tomon bosib ketadi. Chunki suvga botirilgan barmoq hajmiga teng qo‘shimcha suv quyilgandek bo‘ladi.

Kompetentlikka yo‘naltirilgan topshiriqlardan o‘quv jarayonida kompetensiyaga asoslangan ta’lim modelini amalga oshirish vositasi sifatida, ham mazmun, ham ta’lim texnologiyasining tarkibiy qismi sifatida, shuningdek, ayrim o‘quv fanlarini o‘zlashtirish sifatini nazorat qilishda va bo‘ljak kadrlarni (o‘quvchilarni) tayyorlash sifatini baholashda foydalanish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.09.2018 yildagi “2018–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi №PQ–3931- son qarori.

2. Z.B.Sangirova va boshqalar Tabiiy fanlar., Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik –T.: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.
3. Qo'qonboyeva, Sh R. "Formation of professional competence of future physics teachers through independent education.,«Academicia An International Multidisciplinary Research journal» India, Vol 12, Issue 05, May 2022." 1202-1205.
4. Qo'qonboyeva, Shaxlo Rafikjonovna. "Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak fizika o'qituvchisi kompetentligini shakllantirish masalasi." *Academic research in educational sciences 2.CSPI conference 3 (2021): 108-112.*
5. Qo'qonboyeva, Sh R. "Method of diagnosing the formation of competensions in the future teachers." *International Conference on Research in Humanities, applied Sciences and Education». Berlin, Germany. 2022.*
6. Qo'qonboyeva, Sh R. "On the diagnosis of the level of professional training of future physical teachers." *Web of scientist: International scientific research journal 3: 85-90.*
7. Sh, Qo'qonboyeva. "Turdiyev N. Bo'lajak fizika o'qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllantirishda va baholashda kompetentlikka yo'naltirilgan topshiriqlar. Metodik qo'llanma." *Toshkent. Turon-Iqbol (2021).*
8. Kukonboyeva, S.R., B.M. Kukonboyev, and H.M.Ergasheva. "TAJRIBA O'TKAZISH BILAN BO'LGAN VAZIFALAR." *Umumjahon fanlari bo'yicha ta'lim tadqiqotlari 2.2 (2023): 78-81.*
9. Qo'qonboyeva, Sh R., and N.Sh.Turdiyev. "Bo'lajak fizika o'qituvshilarining kompetentligini shakllantirishda va baholashda kompetentlikka yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish." (2021).